



Misol. Berilgan a to'g'ri chiziqning gorizontal va frontal izlari chizilsin, hamda uning fazoni qaysi choraklaridan o'tishi aniqlansin (48, 49 - chizmalar).



48 – chizma.



49 – chizma.

Masala quyidagi bosqichlarda yechiladi:

1. Fazoda a to'g'ri chiziq H-proyeksiyalar tekisligi bilan kesishib $a_H(a'_H, a_H)$ - nuqta, ya'ni gorizontal izini hosil qiladi. Epyurda a – to'g'ri chiziq $[ox]$ - o'qi bilan kesishib, a_H - nuqtani hosil qiladi . Uning a'_H – gorizontal proyeksiyasi a' to'g'ri chiziqqa tegishli bo'ladi. a'_H - nuqtaning davomidagi a to'g'ri chiziq fazoning IV-choragida joylashadi. [1]

$$a'' \quad [ox) = a'_H \wedge a'_H \in a'$$

2. Fazoda a to'g'ri chiziq V - proyeksiyalar tekisligi bilan kesishib $a_V(a'_V, a''_V)$ - nuqta, ya'ni frontal izini hosil qiladi. Epyurda a' to'g'ri chiziq $[ox]$ o'qi bilan kesishib, a'_V - nuqtani hosil qiladi . Uning a_V – frontal proyeksiyasi a to'g'ri chiziqqa tegishli bo'ladi. a_V – nuqtaning davomidagi a to'g'ri chiziq fazoning II-choragida joylashadi. a to'g'ri chiziqning a'_H -gorizontal va a_V -frontal izlari orasidagi qismi I – chorakda joylashgan. [1]

$$a' \quad [ox) = a'_V \wedge a''_V \in a''$$

Javob. $a_H = a_H(a'_H, a''_H)$ va $a_V = a_V(a'_V, a''_V)$.